



JIZZAX VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-iyun*



JIZZAX VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Jizzax viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **1491,1** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **15,6** ming kishiga yoki **101,1 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **700,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **47,0 %**), qishloq aholisi soni **791,0** ming kishi (**53,0 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1491,1*ming
kishi*

Tabiiy o'sish

+16,5*ming
kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi


Shahar

**47,0%**

Qishloq

**53,0%**

Aholining tabiiy harakati, ming kishi



Jizzax viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-iyun



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- iyul holatiga


Erkaklar



50,4%

752,2 ming kishi

Ayollar



738,9 ming kishi



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

I- iyul holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	1457,7	1 491,1	102,3
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	189,1	194,5	102,9
Arnasoy	47,6	48,3	101,5
Baxmal	164,6	168,4	102,3
G'allaorol	180,6	184,8	102,3
SH.Rashidov	233,6	239,5	102,5
Do'stlik	68,2	69,4	101,8
Zomin	173,0	177,2	102,4
Zarbdor	91,4	93,6	102,4
Mirzacho'l	54,0	54,8	101,5
Zafarobod	52,1	53,1	101,9
Paxtakor	78,3	80,2	102,4
Forish	96,0	97,6	101,7
Yangiobod	29,2	29,7	101,7

Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- iyul holatiga



2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, Jizzax viloyat doimiy aholisi sonining **33,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

Ma’lumot uchun!: tirk tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirk tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.




2023- yil yanvar-iyun oylarida **19,7** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **26,8** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **1,3** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022- yilda **25,5** promilleni tashkil etgan).

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

	2022- yil	2023- yil	O’sish sur’ati, % da
Jizzax viloyati	18330	19720	107,6
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	2604	3224	123,8
Arnasoy	522	497	95,2
Baxmal	2182	2382	109,2
G‘allaorol	2294	2501	109,0
SH.Rashidov	2995	3170	105,8
Do‘stlik	689	883	128,2
Zomin	2349	2412	102,7
Zarbdor	1192	1171	98,2
Mirzacho‘l	536	442	82,5
Zafarobod	626	599	95,7
Paxtakor	968	1086	112,2
Forish	1080	1044	96,7
Yangiobod	293	309	105,5



Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun



2023- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – 97,6%
- 2 nafar – 2,4%
- 3 nafar va undan ortiq – 0,0%

VAFOT ETGANLAR

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 3 254 ta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan o‘limlar soni o‘zgarmaganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- iyun oylarida 4,4 promille bo‘lgan).

O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun, kishi




2023- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **37,5** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,3** % i – o‘sintalardan, **26,2** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **8,7** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,9** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **2,1** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **14,3** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Hududlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

	2022- yil	2023- yil	O’sish sur’ati, % da
Jizzax viloyati	3141	3254	103,6
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	318	381	119,8
Arnasoy	80	130	162,5
Baxmal	416	382	91,8
G‘allaorol	489	395	80,8
SH.Rashidov	305	593	194,4
Do‘stlik	118	162	137,3
Zomin	539	358	66,4
Zarbdor	232	193	83,2
Mirzacho‘l	115	75	65,2
Zafarobod	105	145	138,1
Paxtakor	167	171	102,4
Forish	200	185	92,5
Yangiobod	57	84	147,4



QAYD ETILGAN NIKOHLAR

2023- yilning yanvar- iyun oylarida **3564** kishi nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,8** promille tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **1,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- iyun oylarida **5,8** promille bo‘lgan).

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

	2022- yil	2023- yil	O’sish sur’ati, % da
Jizzax viloyati	4141	3564	86,1
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	627	664	105,9
Arnasoy	100	88	88,0
Baxmal	460	399	86,7
G‘allaorol	523	490	93,7
SH.Rashidov	688	530	77,0
Do‘stlik	165	147	89,1
Zomin	560	418	74,6
Zarbdor	279	193	69,2
Mirzacho‘l	119	91	76,5
Zafarobod	148	113	76,4
Paxtakor	233	207	88,8
Forish	192	182	94,8
Yangiobod	47	42	89,4




NIKOHDА AJRALISHLAR

2023- yil yanvar- iyun oylarida **873** kishi nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan o‘zgarish kuzatilmadi (2022- yil yanvar- iyun oylarida **1,1** promille bo‘lgan).


Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi

	2022- yil	2023- yil	<i>O’sish sur’ati, % da</i>
Jizzax viloyati	827	873	105,6
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	134	156	116,4
Arnasoy	27	24	88,9
Baxmal	83	70	84,3
G‘allaorol	103	103	100,0
SH.Rashidov	127	153	120,5
Do‘stlik	28	39	139,3
Zomin	97	86	88,7
Zarbdor	39	51	130,8
Mirzacho‘l	36	39	108,3
Zafarobod	32	29	90,6
Paxtakor	56	57	101,8
Forish	48	52	108,3
Yangiobod	17	14	82,4



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi
2023- yil yanvar- iyun



2023- yil yanvar- iyun oylarida Jizzax viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **49,1** % i farzandsiz, **32,4** % i bitta farzand bilan va **18,5** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


AHOLI MIGRATSİYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar- iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **3022** kishini. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **3873** kishini, migratsiya saldosi minus **851** kishini tashkil etdi. 2022 yilning mos davrida minus **903** kishi bo'lган.

Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar- iyun, (kishi soni)





2023- yilning yanvar- iyun oylarida **3022** kishi ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **4,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- iyun oylarida **4,8** promille bo‘lgan).


Jizzax viloyati bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

2022- yil yanvar-iyun, kishi

	Ko‘chib kelganlar			Ko‘chib ketganlar		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		viloyatning boshqa hududlaridan	xorijiy mamlakatlardan		viloyatning boshqa hududlariga	xorijiy mamlakatlarga
Jizzax viloyati	3 022	2 997	25	3 873	3 801	72
<i>hududlar:</i>						
Jizzax sh.	723	720	3	675	657	18
Arnasoy	65	65	-	173	168	5
Baxmal	153	153	-	383	382	1
G‘allaorol	166	166	-	330	329	1
SH.Rashidov	608	608	-	531	527	4
Do‘stlik	134	134	-	260	255	5
Zomin	236	236	-	317	317	-
Zarbdor	172	172	-	211	211	-
Mirzacho‘l	217	199	18	231	203	28
Zafarobod	122	120	2	174	171	3
Paxtakor	260	258	2	256	255	1
Forish	117	117	-	250	244	6
Yangiobod	49	49	-	82	82	-

Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun, (kishi soni)



2023- yilning yanvar- iyun oylarida **3873** kishi ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **5,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan **0,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- iyun oylarida **6,1** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sababları – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migrations o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 72 221-54-00